

**JISMONIY TARBIYA JARAYONINI MILLIY AN'ANALAR VOSITASIDA  
TASHKIL ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.**

*To‘lanov Ro‘zimuhammad  
Andijon davlat pedagogika insituti  
Jismoniy madaniyat yo‘nalishi  
3-bosqich bitiruvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, jismoniy tarbiya jarayonini milliy an'analar vositasida tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslariga to'xtalib o'tilgan bo'lib, milliy an'analarni yoritishga harakat qilingan.

**Kalit so'zlar:** milliy an'analar, zamonaviy yondashuvlar, qadriyatlar, tarixiy qadriyatlar, an'ana, odatlar va madaniyat.

**Абстрактный:** В данной статье были затронуты научно-теоретические основы организаци процесса физического воспитания с помощью национальных традиций, а также предпринята попытка осветить национальные традиции.

**Ключевые слова:** национальные традиции, современные подходы, ценности, исторические ценности, традиции, обычаи и культура.

**Abstract:** In this article, the scientific-theoretical foundations of organizing the process of Djismonic education through national traditions have been touched upon, and an attempt has been made to illuminate national traditions.

**Key words:** national traditions, modern approaches, cadres, historical cadres, tradition, customs and culture.

Jahon ta'lim tizimidagi zamonaviy yondashuvlar, ta'lim mazmunini milliy an'analar, qadriyatlar asosida takomillashtirish orqali samaradorlikka erishish, tarixiy qadriyatlar, an'analarning didaktik imkoniyatlaridan foydalanish kabi masalalar ta'lim islohotlarining asosiy yo'nalishlarini tashkil etadi. Shuningdek, bugungi kundagi mazkur yo'nalishda jismoniy tarbiya jarayonini o'qitish borasidagi yangiliklar, o'zgarishlar va qonunlar, zamonaviy va milliy an'analar vositasidan samarali foydalanish metodikasi dolzarb pedagogik muammolar sirasiga kiradi. Xususan, Jismoniy tarbiya fanidan foydalanish yuzasidan mamlakatimizda olib borilgan tadqiqotlar natijalari ta'lim oluvchilarning milliy va an'analar vositasida jismoniy tarbiya jarayonini tashkil etishni rivojlantirish va takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu masalani yoritishdan avval biz milliy an'analar tushunchasiga tarif berib o'tsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Milliy an'analar – millat hayotining turli sohalarida namoyon bo'ladigan tushunchalar, belgilar, xususiyatlar, qadriyatlar, faoliyat turlari, odatlar va xislatlarning avloddan avlodga o'tishi hamda meros bo'lib qolishini ifodalovchi tushuncha. Milliy an'analar umuminsoniy an'analarning bir millat darajasida namoyon bo'lishidir [3]. Milliy an'analar orqali har bir millatning muayyan davrdagi o'ziga xos xususiyat, hayot tarzi, madaniyati, xususan xalqimizning jismoniy tarbiya sohalarida erishilgan natijalar va yutuqlarini boshqa davrda yashayotgan avlodlarga etkaziladi. Milliy an'analar rang-barangdir. Ularda har bir millatga xos xususiyatlar namoyon bo'ladi. Masalan, butun dunyo xalqlariga xos mehmondo'stlik an'anasi o'zbeklarda ruslarnikidan, gruzinlarniki inglizlarnikidan farq qiladi. Milliy an'analar millatni birlashtirish avlodlararo vorislikni

ta’minlash vositasidir. Muayyan milliy an’analarini bajarishda kishilar ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, bir xilda harakat qiladi. Milliy an’analarda millatning betakrorligi, millat hayotining o’ziga xosligi, vorislikning muhim milliy jihatlari namoyon bo’ladi. Har bir xalq o’z milliy an’alarining sohibi, ularning saqlovchisidir. Millatning har bir avlodi milliy an’analarini o’tmishdan kelajakka etkazib beruvchi insonlar ruhida tarbiyalanishi kerak. Asrlar mobaynida shakllangan, avloddan avlodga o’tib kelayotgan milliy an’alarimiz mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omiliga aylandi. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya jarayonlarini yangi sifat bosqichiga olib chiqish, o’quvchi-yoshlarni milliy an’analar vositasida tarbiyalash masalalariga alohida e’tibor berilmoqda. 2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ettita ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasida “Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish” ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu borada o’quvchi-yoshlarni milliy an’analar vositasida tarbiyalash, Jismoniy tarbiya fanidan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifat hamda fazilatlarni rivojlantirish va takomillashtirish alohida ahamiyatga ega. Shu sababli jismoniy tarbiya jarayonini milliy an’analar vositasida tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslari shakllantirish va metodikasini takomillashtirish zaruratini yuzaga chiqmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son Qarori [1]da ham tarbiya jarayonini milliy an’analar vositasida tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslariga to‘xtalib o‘tilgan.

Xulosa qilib aytganda, o‘rganishlarimiz natijasida ma’lum bo‘ldiki, bugungi kunda tarbiya jarayonini milliy an’analar vositasida tashkil etishni xayotni o‘zi taqazo etmoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda jismoniy tarbiya jarayonini milliy an’analar vositasida tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslarini yoritish pedagogik axamiyat kasb etmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son Qarori.
2. R.J.Ishmuxammedov, M.Yo‘ldashev. Ta’lim va tarbiyada pedagogik innovatsion texnologiyalar. Toshkent. “Nihol” nashriyoti. 2013-yil.
3. <http://oyina.uz/uz/teahause/1986#>